

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
KENGASHINING 2022/2023 O'QUV YILI 1-SONLI MAJLISI
BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA

Namangan shahri

2022 yil 30 avgust

Raislik qiluvchi: C.T.Turg'unov - Namangan davlat universiteti rektori
Qatnashdilar: Kengashning 35 nafar a'zolaridan 32 nafari (ro'yhat asosida)

5.3. Talabalar turar joyida yashash pulini tasdiqlash to'g'risida.

(Turg'unov, Dexkanov, Turg'unov)

Kun tartibidagi navbatdagi masala yuzasidan yoshlar bilan ishslash va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha prorektor N.Dexkanov so'zida talabalar turar joyida oylik yashash pulini belgilash to'g'risida aytib o'tildi. Ushbu o'quv yilida talabalar turar joyida faqatgina 1234 nafar talabaga yetadigan joy mavjudligi, shuning uchun birinchi navbatda dovon ortidan va uzoq viloyatlardan keladigan talabalarni joylashtirish zarurligini aytib o'tildi. Shuningdek usitvorik chin yetim va 1-gurux nogironlari, mexribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga berilishi aytib o'tildi. Talabalarga yengillik yaratish maqsadida 1-gurux nogironlari va mexribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga xonalar bepul berilishi aytib o'tildi. Shulardan tashqari boshqa talabalarga talabalar turar joyi uchun yillik to'lov miqdori 500.000 (besh yuz ming) so'm etib belgilash masalasi qo'yildi. Demak, 1 oylik to'lov 50.000 (ellik) ming so'mni tashkil etish masalasi muxokamaga qo'yildi.

Qo'yilgan masala yuzasidan o'quv ishlari bo'yicha prorektor D.Xolmatov fikr bildirib, ushbu summani 50% ni oldindan to'lash masalasini aytib o'tdi. Kengash a'zosi G'.Abdullaev ham fikr bildirib o'tib, narx-navo bir necha marotaba oshsa-da, lekin talabalar TTJ uchun to'layotgan 50.000 (ellik) ming so'm mablag' juda kam miqdordagiligi va to'lov summasini oshirish lozimligini aytib o'tdi. Ushbu summani oylik to'lovi 100.000 (yuz) ming so'mni tashkil etishi lozimligini aytib o'tdi. Shu masala bo'yicha kengash a'zosi N.Narzullaev ham fikr bildirib oldindan to'lov miqdori 50%ni tashkil etishi lozimligini, qolaversa shartnomaga asosida taxsil olayotgan talabalarda mablag' bilan bog'liq muammo yuzaga kelishi mumkinligini aytib o'tdi.

Kengash a'zosi A.Qurbanov ham fikr bildirib o'tib, dovon ortidan keladiganlarni emas, balki, talabalarning ijtimoiy holatini o'rganish lozimligini,

tumanlarda istiqomat qiluvchi sharoiti og'ir oilalarning farzandlari borligini inobatga olish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

D.Xolmatov so'zida aksincha, dovon ortidan keladigan talabalarni hisobga olinishi zarurligini hamda talabalar ijara to'lovini 50%ni oldindan to'lash zarurligi to'g'risida fikr bildirildi va ovozga qo'yildi.

Muhokama yakunida bildirilgan taklif va tavsiyalar ovozga qo'yildi va Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlandi.

Kengash muhokamasiga taqdim etilgan ma'lumotlar, taklif va tavsiyalar hamda kengash a'zolari bildirgan fikr-mulohazalar asosida

QAROR QILADI:

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor N.Dexkanovning "Talabalar turar joyida oylik yashash pulini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Universitet talabalar turar joyida oylik yashash puli 50 ming so'm etib belgilansin.
3. Talabalar turar joyida yashash uchun talabalar tomonidan sentyabr oyidan boshlab har bir oyi uchun 50.000 (ellik) ming so'mdan to'lov amalga oshirilishi belgilansin.
4. Talabalar turar joyiga uzoq hududlarda yashovchi, shu bilan birga "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilari, chin yetim, nogiron, "Temir daftар", "Ayollar daftari"da turuvchi talabalar ustuvorlik berilsin.

"Ko'chirma asliga to'g'ri"

Ilmiy kotib



M.Asqarova